

OSIYO MAMLAKATLARIDA YOSHLAR INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI: HODISALAR, TENDENSIYALAR VA AMALIYOTLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17354726>

Eshpo'latova Shoxzoda Bobur qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika
Universiteti magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Osiyo mamlakatlarida yoshlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik, siyosiy va texnologik tashabbuslar tahlil qilinadi. Amaliyotda qo'llanilayotgan STEAM ta'limi, kurikulum islohotlari, raqamli resurslar, o'qituvchilar malakasini oshirish, yoshlar rahbarlik markazlari va siyosatlar tekshiriladi. Maqola Osiyo hamda Markaziy Osiyo misollariga asoslanib, zamonaviy tendensiyalar, muvaffaqiyat va muammolar hamda takliflar keltiradi.

Kalit so'zlar

Osiyo ta'lim islohotlari, STEAM, kurikulum yangilanishi, yoshlar rahbarligi, raqamli ta'lim, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические, политические и технологические инициативы, направленные на развитие интеллектуальных способностей молодежи в странах Азии. Будут рассмотрены STEAM-образование, реформы курикулума, цифровые ресурсы, повышение квалификации учителей, молодежные лидерские центры и политики, применяемые на практике. В статье представлены современные тенденции, успехи, проблемы и предложения, основанные на примерах из Азии и Центральной Азии.

Ключевые слова

Азиатские образовательные реформы, STEAM, обновление курикулума, молодежное лидерство, цифровое образование, педагогические инновации.

Abstract

This article analyzes pedagogical, political, and technological initiatives aimed at developing the intellectual abilities of young people in Asian countries. STEAM education, curriculum reforms, digital resources, teacher training, youth leadership

centers, and policies used in practice are examined. Based on examples from Asia and Central Asia, the article presents contemporary trends, successes, challenges, and proposals.

Keywords

Asian education reforms, STEAM, curriculum renewal, youth leadership, digital education, pedagogical innovations.

Intellectual qobiliyat – fikrlash, muammo hal qilish, kreativlik va analitik tafakkur kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi – bugungi global va ma'naviy raqobat sharoitida yoshlar uchun muhim omil hisoblanadi. Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot va ish bozori talablarining o'zgarishi ta'lim tizimlarini yangi talablar ostida turg'izmoqda. STEAM, yangi kurikulumlar, raqamli texnologiyalar, rahbarlik va yosh siyosatlari kabi elementlar yoshlarda intellektual rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu maqolada Markaziy va Sharqiy, Janubi-Sharqiy Osiyo misollarida olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi.

Kurikulum islohotlari va 21-asr ko'nikmalari. Ko'plab mamlakatlarda qo'llaniladigan bu model ta'lim dasturlarini aniq belgilangan maqsadlar asosida tashkil etadi. o'qituvchilar darslarni rejalashtirishda milliy yoki mahalliy kurikulumga tayanadilar. Kurikulum (o'quv dasturi) butun dunyoda eng keng tarqalgan ta'lim modellaridan biri va islohotlar yo'nalishi hisoblanadi. Birinchi marta o'quv dasturi tushunchasi AQShda 70-yillarda joriy etilgan. Keyinchalik (1876 yilda) shakllangan va atama sifatida rivojlangan va 1918 yildan boshlab qo'llanilgan. Kurikulum lotincha so'zdir. Bu "ilm", "kurs", "yo'nalish", "yugurish", "yo'l" ma'nolarini bildiradi. Muayyan vaqt ichida qayta ishlashdan so'ng xorijiy mamlakatlar lug'atiga "o'quv rejasi", "dastur", "o'quv kursi" atamaları qo'shiladi. Kurikulum (o'quv dasturi) hozirgi ta'lim tizimining yangi shakllangan dasturidir va butun dunyoda ta'lim asosini tashkil etuvchi hujjat sifatida e'tirof etilgan. Bangladeshda 2009 yildan boshlab boshlagan "creative curriculum system" – asosiy va o'rta maktab darajalarida kurikulum mazmuni va imtihon savollari shakli o'zgartirildi. Mazkur o'zgarishlar – yod olishga asoslangan darslardan (rote learning) farqli ravishda fikrlash, tushunish va ijodiy yondashuvga urg'u berishga yo'naltirilgan.

Sharqiy Osiyo (Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Tayvan, Gonkong) da "Advancing 21st Century Competencies in East Asian Education Systems" deb nomlangan hisobotda, ta'lim tizimlarida yoshlar uchun moslashuvchanlik, kreativlik, muammolarni hal qilish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ko'nikmalar asosiy yo'nalish sifatida tanlangan.

STEAM va texnologiyalar. Qozog'iston, Turkestan viloyatida UNICEF, Al-Farobiy Qozog'iston Milliy Universiteti, va boshqa tashkilotlar hamkorligida Turkistan shahrida "UniSat educational hub" markazi ochilgan. Bu markaz STEAM yo'nalishlarida, jumladan aerokosmik texnologiyalar, game development va gamifikatsiya uslublari orqali yosh qizlar va talabalar orasida texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xitoy (CODEMAO). CODEMAO kompaniyasi xuddi shu tarzda yoshlarni AI davri ko'nikmalariga o'rgatish, dasturlash tillari va raqamli ko'nikmalar bo'yicha onlayn va offline kurslar tashkil qilmoqda. UNESCO bilan hamkorlikda butun Osiyo bo'yicha resurs almashinuvi va texnologik innovatsiyalarni qo'llash loyihalari yuritilmoqda.

O'qituvchilar malakasini oshirish va siyosat. Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda UNESCO, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, pre-service (o'qituvchi tayyorlash) va in-service (amalda ishlayotgan o'qituvchilarning malaka oshirish) tizimlari takomillashtirilmoqda. Shuningdek, pedagogik va raqamli kompetensiyalarni oshirishga qaratilgan dasturlar joriy etilmoqda.

Yangi kurikulum va o'zgarayotgan baholash tizimlari. East Asian davlatlarida baholash usullari ham o'zgarayotgan – memorizationdan tashqari analitik, bahsli vaziyatlarda qaror qabul qilish, loyiha asosida baholash ko'proq qo'llanilmoqda. Masalan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapurda o'quvchilarni baholashda kompetensiyaviy yondashuv (competency-based assessment) joriy etilgan bo'lib, bunda faqat bilim darajasi emas, balki real muammolarda bilimni qo'llash qobiliyati, mustaqil tahlil, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar ham baholanadi.

Yaponiyada 2020-yildan boshlab "New Course of Study" dasturi asosida milliy testlarda faqat test savollari emas, balki ochiq turdagi savollar (open-ended questions) va loyiha asosida baholash (project-based assessment) ham kiritildi. Bu yondashuv o'quvchilarning chuqur tushunish, tahlil qilish va o'z fikrini asoslab berish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi "Free Semester System" dasturi orqali o'rta maktablarda o'quvchilarni baholash jarayonini yangilab, raqamli portfoliolar va ko'nikma xaritalari (skills mapping) orqali o'quvchilarning o'sishini muntazam kuzatish imkoniyatini yaratdi. O'quvchi har bir bosqichda o'z intellektual o'sishini vizual ko'rinishda tahlil qila oladi.

Singapurda esa "Assessment for Learning (AfL)" tamoyili asosida baholash jarayonlari qayta ko'rib chiqilgan. Bu tizimda baholash yakuniy natijani emas, balki

ta'lim jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida ko'riladi. O'qituvchilar baholash ma'lumotlarini tahlil qilib, individual rivojlanish rejalari tuzadilar.

Xitoyda esa 2021-yildan boshlab "Gaokao Reform" islohoti amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotning asosiy maqsadi o'quvchilarni yodlab olishdan ko'ra, ijtimoiy muammolarni hal qilish, fanlararo integratsiyani tushunish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishdir. Xitoyda "AI-based adaptive assessment platforms" (sun'iy intellekt asosida moslashuvchan baholash tizimlari) keng joriy qilinmoqda. Bular o'quvchilarning individual o'rganish tezligi va fikrlash darajasiga qarab test savollarini moslashtiradi.

Finlyandiya va Yaponiya hamkorligida olib borilayotgan "Future Skills Asia Project (2022-2025)" doirasida esa baholash tizimlari raqamli platformalar asosida tahlil qilinmoqda. Ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli baholash vositalari (digital assessment tools) yordamida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil ifodalashda 32% ga yaxshilanish kuzatilgan (OECD, 2023).

Yoshlar rahbarligi, jamiyat bilan aloqalar. Bangladesh Youth Leadership Center (BYLC) yosh rahbarlar markazi bo'lib, universitet talabalariga mo'ljallangan rahbarlik va ijtimoiy loyiha mashg'ulotlari (workshop), seminar va treninglar o'tkazadi. Bu markaz yoshlarning rahbarlik salohiyatini, tashabbus ko'rsatish va jamiyatda faol bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. ASEAN mintaqaviy tashabbuslari. ASEAN, ILO, UNICEF kabi tashkilotlar Yoshlar ko'nikmalari, ishga kirish, gender tenglik va raqamli/yashil ko'nikmalar bo'yicha regional dialoglar tashkil qilib, yoshlarning intellektual hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashmoqda.

Xususan, O'zbekiston va qo'shni mamlakatlarida "Digital Technologies in Education" mavzusida yoshlar va o'qituvchilarda raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan maqolalar va amaliyotlar mavjud. O'zbekistonning Jizzax davlat pedagogika universitetida "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash" bo'yicha seminar-treninglar o'tkazilmoqda. Bundan tashqari, "Zakovat" intellektual o'yinlari, universitetlar va talabalarga mo'ljallangan turli musobaqalar orqali tanqidiy fikrlash, tez fikrlash, kooperativ ishlash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga urg'u berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Third Renaissance / Yangi Renessans" davlat konsepsiyasi doirasida fan, madaniyat va ta'lim sohasida klassik meros, ilmiy markazlar, kutubxonalar, tarjima va akademik tekshiruv ishlarini kuchaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Osiyo mamlakatlarida yoshlar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha islohotlar uch yo'nalishda ayniqsa faol

kechmoqda, bular: STEAM va texnologiyalarga asoslangan ta'lim; kurikulum va baholash metodlarining yangilanishi; o'qituvchilar malakasini oshirish va yosh rahbarlik imkoniyatlarini yaratish. Ayniqsa, Markaziy Osiyo va O'zbekiston misollarida ham bu jarayonlar sezilarli darajada rivojlanayotganiga guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bundan ko'rinadiki, texnologik infratuzilmani rivojlantirish yani tuman va qishloq joylarga internet, kompyuterlar, laboratoriyalarni kengaytirish zarurigi; o'qituvchilarni doimiy malaka oshirishi ya'ni darslarda yangi pedagogik uslublar, STEAM, loyiha-asos, raqamli dars metodlaridanfoydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi; monitoring va baholash tizimlarini kuchaytirish, yoshlar intellektual qobiliyatlarining rivojlanishini aniq ko'rsatkichlar bilan o'lchash, ilmiy tadqiqotlarga ko'proq e'tibor zarurligi; teng imkoniyatlar yaratish, hududiy, gender, moliyaviy farqlarni kamaytirish choralarini ko'rish hamda, mamlakatlararo tajriba almashish, muvaffaqiyatli STEAM markazlari, yosh rahbarlik institutlari va kurikulum yangilanishlari bo'yicha hamkorlik qilish albatta barcha uchun muvaffaqiyatli bo'ladi.

Umuman olganda, Osiyo mamlakatlarida baholash tizimi endilikda bilimni sinash emas, balki fikrlashni rivojlantirish, ijodiy qaror qabul qilish va umrboqiy o'rganish kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida qaralmoqda. Ushbu transformatsiya yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va "uchinchi renessans" avlodini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Asia Society. (2018). Advancing 21st Century Competencies in East Asian Education Systems. Retrieved from <https://asiasociety.org/new-report-examines-education-reforms-east-asian-education-systems>
2. CODEMAO & UNESCO IITE. (2023). AI-driven Education and Youth Programming Initiatives in China. Retrieved from <https://fr.ichei.org/en/news/information/868.html>
3. Bangladesh Ministry of Education. (2021). Creative Curriculum System and Education Reform in Bangladesh. Retrieved from <https://arxiv.org/abs/2112.13842>
4. Bangladesh Youth Leadership Center (BYLC). (2023). Programs and Youth Development Activities. Retrieved from https://en.wikipedia.org/wiki/Bangladesh_Youth_Leadership_Center
5. UNICEF & ASEAN. (2024). ASEAN Regional Dialogue on Youth Skills Development and Gender Equality. Retrieved from

<https://www.unicef.org/genunlimited/stories/asean-regional-dialogue-unveils-unified-strategy-youth-development>

6. Uzbekistan National News Agency (UZA). (2024). From the Depths of Centuries Toward a New Renaissance: The Reforms of Our Independence. Retrieved from https://uza.uz/posts/from-the-depths-of-centuries-toward-a-new-renaissance-the-reforms-of-our-independence_751424

7. Jizzakh State Pedagogical University. (2024). Iqtidorli Yoshlarni Qo'llab-Quvvatlashga Qaratilgan Seminar-Trening. Retrieved from <https://jdpu.uz/en/iqtidorli-yoshlarni-qollab-quvvatlashga-qaratilgan-seminar-trening-bolib-otdi>

8. Inlibrary Uzbekistan. (2024). Digital Technologies in Education and Youth Competency Development. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/ijp/article/view/39620>

9. <https://www.ibo.org/about-the-ib>

10. <https://www.oph.fi/en/education-system>